

B.R. SANAQULOVA

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH



S30

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B. R. SANAKULOVA

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan 5340800 - «Soliqlar va soliqqa tortish»
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

*Iqtisod fanlari doktori, professor
A. A. Vahobovning umumiy tahriri ostida*

102272

2/3

«NOSHIR»
TOSHKENT-2012

УДК: 338.22:336.22

КБК 65.261.4

S-30

Sanakulova B.R.

Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish: o'quv qo'llanma. / B.R.Sanakulova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent moliya instituti. — Toshkent: Noshir, 2012. 236-bet.

**КБК 65.261.4
65.9 (5Ÿ)09**

Taqrizchilar: **Sh.Toshmatov** — Iqtisod fanlari doktori, professor;
A. Jo'rayev — Iqtisod fanlari doktori, professor

Ushbu o'quv qo'llanma 5340800 - «Soliqlar va soliqqa tortish» (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) bakalavriat yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining nazariy va amaliy asoslari statistik ma'lumotlar asosida bayon etilgan. Shuningdek talabalarning mazkur fan bo'yicha bilimlarini yanada oshirish maqsadida, fanga taalluqli hamda bugungi kunda dolzarb bo'lgan masalalar ham atroflicha yoritilgan.

ISBN 978-9943-353-90-9

© «NOSHIR» nashriyoti, 2012.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash turli sohalarda tub islohotlar amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ko'p jihatdan bugungi kunda kadrlarning bilim va ko'nikmalariga bog'liqligi bois ta'lim tizimini isloh qilishning keyingi bosqichlarida kadrlar tayyorlashning sifatiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, buning samarasi o'laroq ta'lim tizimining joriy davr talablari darajasida ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlar yaratilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanma ham ta'lim tizimini isloh qilishning keyingi bosqichlari talablaridan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lib, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortish mexanizmining nazariy va amaliy jihatlarini o'zida mujassam etgan hamda bugungi kunda mazkur sohada shiddatli tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni o'zida mujassam etgan.

Shuningdek respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini ham isloh qilishni, sohada yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Ma'lumki, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi ko'p jihatdan ularning nazariy hamda amaliy jihatdan qay darajada asoslanganligi bilan belgllanadi. Shu bois kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimining nazariy jihatlarini tadqiq qilish davr talabidir.

O'quv qo'llanmada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish masalalari nazariy jihatdan atroflicha o'rganildi hamda amaliy misollar yordamida tahlil etildi. Shuningdek o'quv qo'llanmada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining tarixiy bosqichlari, soliqqa tortish mexanizmining takomillashuv jarayoni hamda mazkur sohada bugungi kunda yuzaga kelayotgan